

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 4-SON

2025-YIL

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-5-5

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 9-dekabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Rakhimov Oktyabr, Tulayeva Soxiba

KASBIY TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISHDA XAVFLARNI TASNIFINING TUTGAN O'RNI 4-7

Safojev Nuriddin

KVANT NUQTALI TEXNOLOGIYADA QUVVAT TAHLILI HUJUMLARI VA KRIPTOGRAFIK SXEMALARNI LOYIHALASH 8-11

TARIX FANLARI

Begaliyeva Aysha

ISLOHOTLARDAN KEYINGI DAVRDA ROSSIYA IMPERIYASI TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 12-14

IQTISODIYOT FANLARI

Murtazayev Isabek

ZARAFSHON MINTAQASIDA BUXORO VILOYATINING HUDUDIY-IQTISODIY SALOHİYATI VA TARMOQLARARO IXTISOSLASHUVI 15-18

FALSAFA FANLARI

Maxmudov Izzatillo

KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSAT VA IJTIMOİY HIMOYA ISLOHOTLARI O'ZARO BOG'LIQLIGI 19-22

FILOLOGIYA FANLARI

Saydullayeva Aziza

"YALMOG'IZ KAMPIR" ERTAGI: KOMPOZITSIYA, KONFLIKT VA YOVUZ QAHRAMON TAHLILI 23-25

Xamrakulova Farangiz

TEMPORAL METAFORALARINING AQLIY VA MADANIY IDROKKA TA'SIRI 26-28

YURIDIK FANLAR

Normurodova Behro'za

RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO HAMKORLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI 29-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Xaqiqatbekov Zafarbek

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR SALOMATLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA UNIVERSITET RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH 37-42

Rustamova Shoxista

TALABALAR TADQIQOT ISHLARINI XALQARO ILMIY PLATFORMALARDA INTEGRATSIYALASH: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR 43-48

Tagayev Odil

VIRTUAL VA KENGAYTIRILGAN HAQIQAT (VR/AR) TEXNOLOGIYALARI DIDAKTIK IMKONIYATLARI 49-51

Xakimova Xosiyat

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING NUTQ KO'NIKIMLARINI BAHOLASHNING DIAGNOSTIK MODELI 52-54

TEXNIKA FANLARI

KASBIY TAVAKKALCHILIKNI KAMAYTIRISHDA XAVFLARNI TASNIFINING TUTGAN O'RNI

Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich

Qarshi davlat texnika universiteti "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrasini mudiri, professor

Tulayeva Soxiba Akbar qizi

Qarshi davlat texnika universiteti

"Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" mutaxassisligi magistri

Annotatsiya. Maqolada kasbiy tavakkalchilikni kamaytirishda xavflar va ularning tasnifini tutgan o'rni asoslangan. Xavfga umumiy ta'rif berilib, uning taksonomiyasi, nomenklaturasi, kvantifikatsiyasi hamda identifikatsiyasining mazmuni keltirilgan. Xavflarni kelib chiqish tabiati, standartlar, yuzaga keltiruvchi zararlari, tuzilishi hamda insonga ta'sir darajasiga ko'ra tasnifi hamda faoliyatning potentsial xavfi haqida aksioma va sabab-oqibat tizimining mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: tavakkalchilik, xavf, potentsial, tasnif, taksonomiya, nomenklatura, kvantifikatsiya, identifikatsiya, aksioma, sabab, oqibat

THE ROLE OF HAZARD CLASSIFICATION IN RISK ASSESSMENT

Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich

Professor of the Department "Labor Protection and Safety Engineering" of the Karshi State Technical University

Tulaeva Sokhiba Akbar kizi

Master's Degree in "Labor Protection and Safety Engineering" of the Karshi State Technical University

Annotation. The article substantiates the role of hazard classification in reducing occupational risks. A general definition of risk is provided, and the content of its taxonomy, nomenclature, quantitative assessment, and identification is presented. The nature of risk origins, standards, the harm they cause, their structure, and the level of impact on humans are considered, as well as the content of the axiom and cause-effect relationships about the potential risk of activity.

Key words: risk, hazard, potential, classification, taxonomy, nomenclature, quantitative assessment, identification, axiom, cause, effect

KIRISH. Kasbiy tavakkalchilikni kamaytirishda xavflarni va ularning manbalarini hamda tasniflanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xavf – mehnatni muhofaza qilishning markaziy tushunchasi bo'lib, u hodisa, jarayon va ob'ektlarning inson sog'ligiga to'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ma'lum sharoitda qay darajada zarar yetkazish qobiliyati tushuniladi, ya'ni ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladi. Xavflarni tahlil qilish maqsadiga ko'ra xavfni xarakterlovchi belgilarning soni ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Mehnatni muhofaza qilishdagi xavfga berilgan yuqoridagi ta'rif mavjud bo'lgan standart tushunchalarni (xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari) o'ziga tortuvchi, xamda faoliyatning barcha turlarini hisobga oluvchi muhim tushunchadir [1].

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda adbiyotlar va tahliliy, bashoratli, taqqoslash va statistik tahlil usullaridan, shuningdek, so'rovlar, kuzatuvlar, ochiq g'oyalar va eksperimental test natijalarini tahlil qilish

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Xavf energiyaga ega bo'lgan kimyoviy yoki biologik faol komponentlarni o'zida joylashtirgan barcha tizimlarni hamda inson hayot faoliyati sharoitiga javob bermaydigan tavsiflarni o'zida ifoda etadi.

Xavflar taksonomiyasi. Taksonomiya - bu murakkab hodisalar, tushunchalar va ob'ektlarni sinflashtirish va tizimlashtirish haqidagi fandir. Taksonomiya so'zi xavflarni qonun bo'yicha joylashtirish degan ma'noni beradi. Modomiki, xavf ko'p belgilarga ega bo'lgan murakkab ierarxik tushunchadir. Faoliyat xavfsizligi sohasida ilmiy bilimlarni tashkil qilishda xavflarni taksonomiyalash muhim rol o'ynaydi va ularning tabiatini chuqur bilishga undaydi. Hozircha xavflarning yetarlicha to'liq mukammal taksonomiyasi yaratilmagan.

Xavflar nomenklaturasi. Nomenklatura - ma'lum belgilariga ko'ra tizimlashtirilgan xavfli nom va so'zlar ruyxatidir. Hozirgi kunda xavflarning nomenklaturasini umumiy holda alfavit tartibida quyidagicha keltirish mumkin:

ajal, alanga, alkogol, vakuum, vulqan, vahima, gaz, gerbisid, dard, dinamik zo'riqish, yemirilish, yomg'ir, yong'in, zo'riqish, zahar, zilzila, ifloslanish, ichkilik, kasallik, kamchilik, kuyish, lat yemoq, loyqalanish, lazer nurlari, magnit maydoni, momaqalldiroq, meteoritlar, mikroorganizmlar, namlanish, pulsasiya, pasayish, radiasiya, rezonans, sag'lanish, sirpanish, tebranish, tok urishi, toymoq, uzilish, yashin urmoq, ultratovush, hujum, xavf, charchash, shamol, shovqin, elektr toki, elektr maydoni, yaxmalak, yadro.

Aniq ilmiy izlanishlar olib borilganda, har bir alohida ob'ektlar uchun (ishlab chiqarish, sexlar, ish joylari, jarayonlar, kasblar va hakoza) xavflar nomenklaturasi tuziladi.

Xavflar kvantifikasiyasi. Kvantifikasiya - murakkab tushunchalarning sifatini aniqlashda sonli tavsiflarni joriy qilishdir. Amalda kvantifikasiyaning sonli, balli va boshqa usullari qo'llaniladi. Xavflarni baholashning eng keng tarqalgan usuli tavakkaldir.

Xavflar identifikasiyasi. Identifikasiya - deganda hayot faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan oldini olish va tezkor tadbirlarni yaratishga zarur va yetarli bo'lgan sonli, vaqtinchalik, fazoviy va boshqa tavsiflarni topish va aniqlash jarayonini tushunamiz. Identifikasiya jarayonida aniq masalalarni yechish uchun muhim bo'lgan xavflar nomenklaturasi va ularning paydo bo'lish ehtimolligi, joyini yakkaflash, ko'zda tutilgan zarar va shunga o'xshash o'lchamlari aniqlanadi.

Xavflar kelib chiqish tabiati, standartlar, yuzaga keltiruvchi zararlari, tuzilishi hamda insonga ta'sir darajasiga ko'ra qo'yidagicha tasniflanadi:

1. Kelib chiqish tabiatiga ko'ra: tabiiy, texnikaviy, antropogen (inson bilan bog'liq), ekologik, aralash (ikkita va undan ortiq).
2. Maxsus standartlar bo'yicha: fizik, kimyoviy, biologik va psixofiziologik.
3. Salbiy oqibatlarining vaqt bo'yicha kelib chiqishiga ko'ra: impulsli va kumulyativ (inson organizmida yig'iluvchi).
4. Olib keluvchi oqibatiga ko'ra: toliqish, kasallanish, jarohatlanish, halokat, yong'in va o'lim.
5. Keltiruvchi zarariga ko'ra: ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ekologik.
6. Yakkaflashi bo'yicha: Litosfera, gidrosfera, atmosfera va kosmos bilan bog'liq bo'lgan xavflar.

7. Kelib chiqish sohasiga ko'ra: maishiy, sportga, yo'l - transportiga, ishlab chiqarishga oid xavflarga bo'linadi.

8. Tuzilishiga ko'ra xavflar oddiy va hosil qilingan (oddiylarning ta'sirida hosil qilingan).

9. Insonga ta'sir qilish xarakteriga qarab: faol va sust.

Energiya hisobiga faollashadigan xavflar sust xavflarga kiradi, ularni insonning o'zi vujudga keltiradi. Bular: o'tkir (sanchiluvchi va kesuvchi) qo'zgalmas jismlar, insonlar yuradigan yuzalarning notekisligi, qiyaliklar, balandliklar, bir-biriga tegayotgan yuzalar orasidagi ishqalanish va boshqalar. Xavflarning baxtsiz hodisa yuz berishidan oldingi (aprior) va u yuz bergandan keyingi (aposterior) belgilari mavjud [2].

Har qanday faoliyatning xavfliligini tasdiqlashga insoniyat tajribasi asos bo'ladi. Faoliyatning biror turi yo'qki, u abadiy xavfsiz amalga oshsa. O'z navbatida, quyidagi xulosani ifodalashimiz mumkin: har qanday faoliyat potensial xavflidir. Bu tasdiqlanish aksiomatik xarakterga egadir. Berilgan aksioma faqat metodologik va evristik ahamiyatga ega hisoblanadi [3].

Potensial (yashirin) xavflarni yuzaga keltiruvchi sharoit sabablar deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, sabablar vaziyatlar to'plamini xarakterlaydi, unga ko'ra xavflar paydo bo'ladi va u yoki bu kutilmagan oqibatlar va zararlarni keltirib chiqaradi. Zarar yoki kutilmagan oqibatlarining shakllari har xil bo'lishi mumkin, jumladan xar xil og'irlikdagi jarohatlar, kasalliklar, atrof muhitga zarar va boshqa [4].

Uchlik "xavf-sabablar-ko'ngilsiz oqibatlar" - bu rivojlanishning logik jarayoni bo'lib potensial xavfni bor bo'lgan zararga olib keladi. Qoida bo'yicha bu jarayon bir necha sabablarni o'z ichiga oladi, ya'ni u ko'p sabablidir. Xavf ko'ngilsiz voqeaga har xil sabablar bilan aylanishi mumkin. Baxtsiz hodisalarning oldini olishni asosiy yo'llaridan biri ularning sababinianiqlash hisoblanadi.

XULOSA

Kasbiy tavakkalchilikni kamaytirish - bu faqat majburiyat emas, balki oqilona investitsiyadir. Bu fakat iqtisodiy omillar bilan belgilanmaydi, balki ishchilarning sog'lig'i, ularning ishga bo'lgan ishonchi va korxonaning umumiy muvaffaqiyati uchun ham zarurdir. Xar bir sanoat korxonasida xavfsiz ish joyini ta'minlash - bu zamonaviy va iqtisodiy jihatdan samarali bo'lib, korxonaning ajralmas atributidir. Kasbiy tavakkalchilikni kamaytirishda potensial xavflarni bilish, ularni tasniflash va ushbu xavflar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodislarni bashoratlash [5] orqali kasbiy tavakkalchilikni kamaytirishga qaratilgan qaratigan chora-dadbirlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Kasbiy tavakkalchilikni kamaytirishning dolzarbligi ishchi xodimlarning ishchi kuchi salomatligi va xavfsizligiga, iqtisodiy yo'qotishlarga, sanoat korxonasi obro'si va yuridik masalalarga hamda ularga qo'yilgan qonunniy talablarga bog'liqligini ko'rsatadi. Ahamiyati esa, xodimlar motivatsiyasi va sadokatligini, ishlab chiqarish sifati va samaradorligini, korxonaning raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy mas'uliyatni oshirish bo'yicha tadbirlar orqali amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Introduction to Health and Safety at Work. Phil Hughes, Ed Ferrett. The Boulevard, Langford Lane, Kidlington, Oxford OX5 1GB, UK. ISBN: 978-0-08-097070-7. p 2-8.
2. Introduction to Health and Safety at Work. Phil Hughes, Ed Ferrett. The Boulevard, Langford Lane, Kidlington, Oxford OX5 1GB, UK. ISBN: 978-0-08-097070-7. p 100-119.

3. Raximov O. D. Quality of education-quality of life //Educational-methodical manual, Karshi: TUIT branch publishing house. – 2015.
4. Raximov O. D. et al. Modern educational technologies //Tashkent," Science and Technology" Publishing House. – 2013.
5. Rakhimov O. D. Berdiyev Sh. J., Rakhmatov MI, Nikboev AT Foresight In The Higher Education Sector of Uzbekistan: Problems and Ways of Development //Psychology and Education Journal. – 2021. – T. 58. – №. 3. – S. 957-968.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, dekabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 4-son (dekabr, 2025-yil). – 55 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 9-dekabr

ISBN-978-9910-8337-5-5

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.